



Xaridlar tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son Farmoni hamda Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi boshqaruv kengashi yig'ilishining 2-son bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son Farmoni hamda Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi boshqaruv kengashi yig'ilishining 2-son bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. "O'zavtosanoat" AJning xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom yangi tahrirda 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.1. "O'zavtosanoat" AJning xarid komissiyasining a'zolari tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.2. "O'zavtosanoat" AJning 2025-yil 18-dekabrdagi 29-153-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (X.Nuriddinova) hamda tizim korxonalari rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoni 6-ilovasiga muvofiq,

Davlat buyurtmachilarining xaridlar uchun mas'ul bo'lgan malakasi oshirilgan xodimlari ulushini maqsadli ko'rsatkichlarda belgilangan foizlarga yetkazish ishlari amalga oshirilsin.

3.1. Davlat xaridlari bo'yicha mutaxassis xodimlarni tayyorlash dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va 2027-yil 1-yanvarga qadar majburiy sertifikatlash tizimi joriy etilsin.

4. Xaridlar, ta'minot va logistika boshqarmasi (D.Maxmudov) hamda tizim korxonalari rahbarlari, Davlat xaridlarida raqobatli usullardan foydalanish darajasini oshirish ko'rsatkichini belgilangan foizlarga yetkazilsin (*bunda yagona yetkazib beruvchidan va monopol xaridlar inobatga olinmaydi*).

4.1. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ulushini qisqartirish bo'yicha 1 hafta muddatda takliflar kiritilsin. Qonunda ko'zda tutilmagan hollarda, ushbu xaridlar "taklif so'rovi" xarid qilish tartib-taomili orqali amalga oshirilsin.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-104 son qarori 5-bandiga muvofiq, loyihaoldi hujjatlarni ishlab chiqish uchun texnik topshiriqlar va qiymati 15 million AQSh dollari ekvivalentidan kam bo'lgan loyihaoldi hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bekor qilinsin.

4.3. 2025-yil amalga oshirilgan shartnomalar tubdan o'rganib chiqilsin va har chorak yakuni bo'yicha amalga oshirilgan shartnomalarni reja-jadvalga muvofiqligi o'rganilsin va ma'lumotlar kiritib borilsin.

4.4. Davlat xaridi natijalari davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida ochiqlanishi qat'iy nazoratga olinsin. Davlat xaridi natijalarini ochiqlash bo'yicha talablarni buzgan mas'ullarga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari ko'rilsin.

5. Ma'muriyat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (A.Tursunov), mazkur buyruqni tegishli tarkibiy tuzilmalarga hamda tizim korxonalariga yetkazilishi ta'minlansin.

6. Ushbu buyruq ijrosining ta'minlanishini nazorat qilish, Boshqaruv raisining o'rinbosari B.Rahmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tasdiq

Boshqaruv raisi



2026-06-02 08:48

U.U.Rozukulov

Rozilik

Boshqaruv raisi yordamchisi



2026-06-01 17:14

T.B.Mo'minov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari



2026-06-01 14:21

D.R.Muxamedov

Boshqaruv raisining o'rinbosari



2026-06-01 12:58

B.S.Rahmonov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari



2026-06-01 13:27

S.A.Umarov

Ish yuritish bo'yicha inspektor 03



2026-06-01 15:31

D.D.Mirzaaxmedov

Boshqarma boshlig'i



2026-05-26 09:59

N.R.Alimov

Boshqarma boshlig'i



2026-05-22 15:47

S.I.Gafarov

Ichki audit xizmati boshlig'i



2026-05-26 09:18

R.A.Kadirov

Boshqarma boshlig'i



2026-05-25 16:02

A.V.Tursunov

Departament direktori



2026-05-25 09:23

M.N.Xakimov

Boshqarma boshlig'i



2026-05-22 13:15

G.R.Xusainov

Boshqarma boshlig'i



2026-05-22 17:37

N.S.Musayev

**Boshqaruv raisining axborot
siyosati masalalari bo'yicha
maslahatchisi**



2026-05-26 15:27

J.U.Xo'jayev

Boshqarma boshlig'i



2026-06-01 10:15

X.R.Nuriddinova

Boshqarma boshlig'i-bosh hisobchi



2026-05-25 18:58

O.X.Atabayev

Bosh mutaxassis



2026-05-22 12:40

V.O.Serikova

Boshqaruv raisining maslahatchisi



2026-05-22 12:09

R.A.Abdurahmanov

Mas'ul

Bosh mutaxassis



2026-05-21 11:09

D.N.Maxmudov